

QORAQALPOG‘ISTONDAGI BIRINCHI INSTITUT

Allaberganova Rushana O‘rinboy qizi

QDU 1-kurs magistranti, To‘rtko‘l tumani 12-maktab tarix fani o‘qituvchisi,

Yoqubova Aysara Tadjimuratovna

To‘rtko‘l tumani 12- maktab geografiya fani o‘qituvchisi,

Allabergenova Klara O‘rinboy qizi

To‘rtko‘l tumani 12- maktab boshlang‘ich fani o‘qituvchisi.

E-mail: rushanaallabergenova09.10.96@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola o‘rta maktab o‘quvchilariga, institut va universitet talabalariga, umuman, tarix faniga qiziquvchilarga Qoraqalpog‘iston tarixini o‘rganishda tarixiy manbalarning ahamiyati va ularda keltirilgan ma‘lumotlar tahlili, Qoraqalpog‘istondagi birinchi institut, XX asrdagi siyosiy vaziyat, haqida ma‘lumot beradi.

Kalit so‘zlar: Allayar Do‘snazarov, To‘rtko‘l shaxri, Nukus, Pedagogika instituti, lotin alifbo‘si, II jahon urushi, Sho‘rolar hukumati, Amudaryo toshqini.

ABSTRACT

This article is about the importance of historical sources in studying the history of Karakalpakstan and the analysis of the information contained in them, the first institute in Karakalpakstan, the political situation in the 20th century, for high school students, institute and university students, and those interested in history in general, provides information.

Keywords: Allayar Dosnazarov, Tortkol city, Nukus, Pedagogical Institute, latin alphabet, World War II, Soviet government, Amudarya flood.

KIRISH

Sho‘rolar davlati dastlabki paytlardanoq “dinni davlatdan ajratish” siyosatini yurita boshlaydi. Qoraqalpog‘istonda 1925-yilga qadar barcha masjid va madrasalar yopildi. Madrasalda yoshlarga ta‘lim – tarbiya berib kelgan mudarris va ulamolar birin-кетин tergov qilindi. Ularning bazilari otishga hukm qilindi, bazilari esa uzoq muddatlarga surgun qilindi. Yopilgan masjidlar o‘rnida sho‘ro maktablari ochildi. Bu maktablarga yoshlar kuch ishlatish yo‘li bilan bo‘lsa ham jalb qilindi.

Qoraqalpog‘iston avtonom oblastida 1929-1930 -o‘quv yilidan lotin alifbosiga o‘tildi. Bu esa xalqi savodsiz bo‘lib qolishiga olib keldi. Bolalarga dars o‘tadigan mutaxassislar yo‘q edi. Lotin alifbosini chala o‘rgangan odamlar o‘qituvchilik qila boshladi.

1932-yilda Qoraqalpog‘iston avtonom oblastiga respublika maqomi berildi. Allayar Do‘snazarov Qoraqalpog‘iston obkomining birinchi kotibi etib saylandi. Shundan keyin Qoraqalpog‘istonni xar tomonlama rivojlantirish masalalariga yaxshiroq e‘tibor qaratila boshlandi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi birinchi institut qurilishi XX asrda xalqning ijtimoiy hayotidagi burilish hisoblanadi. Madaniy qarashlarning yana bir pog‘onaga ko‘tarilganidan darak beradi. Jamiyatda ijtimoiy tuzum almashinishi jarayoni birmuncha qiyinchilik bilan kechgan bo‘lsada, yangi jamiyat mafkurasi avvalgi tuzumga qarama -qarshi bolishiga qaramay, yosh avlodning dunyoviy ilmlarni o‘rganishi, dunyoga yangicha nazar bilan boqishiga sabab bo‘ldi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

1934-yilning may oyida “Qoraqalpog‘istonda muallimlar institutini ochish haqidagi” masala muxokama qilinib, To‘rtko‘l shaxrida bir yillik va ikki yillik muallimlar tayyorlash kursini tashkil qilish haqida qaror qabul qilindi. Shunga asosan 1934-yil 1-iyulda Qoraqalpog‘iston xalq komissarlari kengashi “Qoraqalpog‘istonda pedagogika instituti tuzish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Ibragim Ibragimov unga direktor etib tayinlandi. Bu dargohni odamlar “pedagogika instituti” emas, “muallimlar tayyorlaydigan institut” deb atashardi. Institut To‘rtko‘ldan Chimboyga, keyinchalik Nukusga ko‘chirilganga qadar odamlar ana shunday atashdi. Bu yerda o‘qish muddati ikki yil qilib belgilandi. Institutga 1934-yil 15 sentabrda dastlab Najim Davkorayev qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi sifatida ishga qabul qilindi. Ilk bor 1937-yilda institutni 27 nafar talaba tamomladi. Bu voqea ulkan bayram sifatida nishonlandi. Qoraqalpog‘istonda yetarli bilim va malakaga ega bo‘lgan o‘qituvchilar yetishib chiqishi natijasida yoshlar orasida bu kasbga qiziqish kuchaydi. O‘sha paytlari institutga zarur adabiyotlar Moskva shaxridagi bosmaxonalarda chop etilib, yetkazib berilgan.

1939-yilda muallimlar tayyorlash institutining to‘liq kursini tugatgan va imtiyozli diplomga ega bo‘lgan mutaxassislar sharafiga tantanali bayram kechasi tashkil qilindi. Jumladan: tilshunos Qusherboy Berdimuratov, shoir Boyniyaz Qayipnazarov, Yangiboy Do‘sumov, P.Nurpeyisov, P.Shermanov respublika rahbarlari tomonidan taqdirlandi. Biroq 1941-yil Sho‘ralor mamlakatiga fashistlar bostirib kirishi oqibatida faoliyati tugatildi. 1941-yil 1-iyundan institutning tayyorlov kursi yopildi.

1942-yil To‘rtko‘lda toshqin yuz berdi. Oqibatda daryoning shaxarga yaqin yerlari suv ostida qoldi. Institut 1942-yilda Chimboyga ko‘chirildi. O‘sha yillarda

institutda mahalliy xalq fanrzandlariga nisbatan rus tili fakultetida o'qiydigan (rus, koreys va boshqalar) o'zga millat vakillari ko'pchilikni tashkil qiladi. Chunki: urushni dastlabki paytlaridayoq farzandlardan "qoraxat" olgan yoki jang maydonlarida yo'qolganlaridan habar topgan ota-onalarning ko'ngliga qil sig'mas edi. Bag'rida qolgan bolalarning o'qitishni hayoliga ham keltirmas edi. Ana shunday bir paytda institutning tilshunos olimlari: Najim Davqorayev, K.Ayimbetov, Ismayil Sagitov va boshqalar el oralab folklor namunalarini yig'ish bilan bir qatorda sitamzada ota-onalarning ko'ngliga taskin berish va ularning farzandlarini oqishga yuborishga undash bilan mashg'ul bo'ldilar. Ularning tadbiri natijasida ko'pchilik ota-onalar o'zini qo'lga olib, o'g'il qizlarini yana o'qishga jo'nata boshladi. 1945-yil Qoraqalpog'iston Respublikasi xalq komissarlari kengashining buyrug'iga binoan institut Chimboydan Nukusga ko'chirildi.

XULOSA

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, XIX asr oxiri XX asr boshlaridagi og'ir siyosiy tuzumga qaramay millat birdamligi, xalqning faravon hayotda yashashga bo'lgan orzulari so'nimadi. 1932-yildagi institut bu orzular ro'yobi uchun poykadam bo'ldi. Hozirgi kunda Qoraqalpog'istonda Qoraqalpoq Davlat universiteti, Nukus pedagogika instituti hamda Toshkent tibbiyot pediatriya instituti bilan Toshkent agrar universitetining filiallari bor. Ularda 9 mingga yaqin talaba ta'lim olmoqda. 35 ilmiy muassasa, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limiga qarashli 6 ta bo'linma (O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining tabiiy fanlar kompleks instituti, Bioekologiya instituti, Orolbo'yi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar instituti, N.Dovqorayev nomidagi Til va adabiyot instituti, Tarix, arxeologiya va etnografiya instituti, Qoraqalpog'iston klinik va eksperimental tibbiyot ilmiy tadqiqot instituti), faoliyat yuritmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Murodboy Nizanov Qoraqalpoqlar \ N. Bilim 2021.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Qoraqalpoqlar>